

Ona yurti - oltin beshiging

TONG Yulduzi

№37 (66422)
2003 yil
22 sentabr
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqarilgan boshlagan



Toshkent viloyati, Chinoz tumanidagi
Abu Rayhon Beruniy nomli 1- o'rta
maktabning 4- iqtidorli sinf o'quvchilari
tanlov asosida bu sinfga qabul qilingan.

Ona tili va adabiyot o'qituvchisi Arof
Egamberdiyeva o'tgan yili «Yil
o'qituvchisi» ko'rik-tanlovida qatnashdi
va tumanda birinchi, viloyatda ikkinchi
o'rinni egalladi. O'z ustida tinimsiz
izlanadigan, ustoz - Arof opa bilan
shogirdlar haqli ravishda faxrlanadilar.

Suratkash:
X.TOSHMUHAMMEDOV.

- Assalomu alaykum! «Tong
yulduzi»mi? Menga Umida opa
kerak. Iye, o'zingizmisiz?
Qanday yaxshi! Men sizning
«Assalom O'zbekiston»
ko'rsatuvida bolalar va o'smirlar
uchun chiqayotgan gazeta endi 4
rangda chop etiladi, degan
xushxabaringizni eshitib ataylab
do'konchadan «Tong yulduzi»ni
sotib oldim. Undagi barcha
maqolalar meni befarq
qoldirmadi. Iltimos, mening
«Haqiqat bor ekan» degan
maqolamni yozib chiqaring.

HAQIQAT BOR EKAN

Bolasini kiyintirib, ovqatlantirsam
bo'ldi, degan onalarga ajablanib
qarardim. Ularning ayrimlari o'g'il va
qizimni yillar davomida to'garaklarga
yetaklab yurishim, ustozlari
aytganini qilishga
o'rgatishim uchun
ustimdan kulishardi.
O'zlari pardo-
andozga vaqt
topishar,
a m m o
bolasining
puxta bilim
olishini nazorat
qilishga vaqt
topisha olmasdi.
Mehnatlarim zoye
ketmadi. O'g'lim
Fatxulla Hamza
nomidagi musiqa bilim yurtida a'lo
o'qib, sovrinlar olib kelib, bizni
suyuntirgan bo'lsa, bu yil o'z kuchi
bilan Toshkent Davlat
Konservatoriyasiga o'qishga kirib
boshimizni osmonga yetkazdi. Qizim
Habiba esa Pedagogika kollejiga kirdi.
Ko'chamizdagi o'qishga kiraman
degan 10-15 yoshdan faqat mening
o'g'il-qizim talaba bo'lgani ayrimlarni
hayron qoldirayotganmish. Pul berib
kirkansizlar, degan gaplar nafaqat
bolalarimni, balki oilamizdagilarning
hammasini ranjitadi. O'shalarga qayta-
qayta chin dildan: «Mehnat qilib
o'qisanglar, mamlakatimizda haqiqat
bor, albatta ko'zlagan maqsadingizga
yetasizlar», - deyapman. Mening bu
so'zlarimni katta-katta harflarda «Tong
yulduzi»da chiqaringlar. Birovlarni
yomon otliq qilib yurgan bilimi
chatoqlar, ko'z bo'yamachilar shu
so'zimni o'qib, uqib olsinlar: AGAR
CHINDAN O'QISANGIZ, O'Z
KUCHINGIZGA ISHNOSANGIZ -
HAQIQAT BOR, albatta talaba
bo'lasiz.


Mahmuda ODILOVA,
Chilonzor tumani,
Navbahor ko'cha, 35-uy.

SALOM SO'ZIN KIM KO'P ESHITAR?

Bayraming muborak, ey ona Vatan,
Bu kun ustozlarni ko'tarding boshga.
Ularning izidan qulf urar chaman,
Ularning har biri o'xshar Quyoshga.

Ustozlar borligi uchun hayotda,
Adashmay yo'l topar ekan odamzod.
Muallim bo'lmasa, demish alloma,
Bunchalar ham go'zal bo'lmasdi hayot.

Deydilar, muallim - bola nazdida
Inson kamolining oliy ibratini.
Ming bir jilolanib, ming bor ortarkan
Ustoz lutf aylasa so'zning qudrati.



Assalom so'zin ham barchamizdan ko'p,
Ustoz-murabbiylar eshitgay takror.
Jahon ayvonida, olam sahnida,
Ustozlikdan afzal, ayting, nima bor?


Aziz ustozlarni e'zozlaguvchi
Elu yurtlar balkim, ko'pdir jahonda.
Lek ustozlar kunin bayram qilar xalq
Faqat ona yurtim - O'zbekistonda!



Mirza QAYNAROV,
Sirdaryo viloyati, Sharof Rashidov tumani, Xalq ta'limi
bo'limi xodimi, mehnat faxriysi.

NINACHI SHO'X KUYLAB, CHALDI SOZ...

Aziz tengdoshlar! Siz ninachi va chumoli voqeasini
eshitganmisiz? Menga dadam bu masalani ko'p aytib
berganlar. Shuning uchun yozkunlarida chumolidek




mehnat qilgim keladi. Salqin
tushishi bilan, issiq uyga
kirib shamolda to'kilgan
olcha, o'rik, olmalarni
chayib, qoqi qilib
qo'yganimdan hursand
bo'lgancha, uydagilarni
ular bilan siylagim keladi.
Pomidor va bodringlarni
tuzlab, qishga
tayyorlashda onamga
yordam berganimdan
sevinib ketaman. Ayrim
qizlar onasi bankalarni
yuv, kompot yopamiz,
desa o'zini u yon, bu yonga urib vaqtini
o'tkazadi-da, qishda yoz ne'matlaridan bebahra qoladi.
Uyimizga ko'proq meva-chevalar kelib qolsa, ular isrof
bo'lmasin deb tezlikda o'zim bitta- ikkita bankaga joylab,
darrov qishga olib qo'yishga kirishaman. Shuning uchun
qiu davomida bizning dasturxonimiz yoz ne'matlari bilan
to'la bo'ladi. Bundan hamma xursand.

Manzura ABDUG'AFFOROVA,
Sobir Rahimov tumanidagi 326-maktab o'quvchisi.

YASHASIN MEHR, YASHASIN SHIRIN SO'Z!

Men yozni onamga sigir sog'ish va uning sutini qatiq qilib,
sotishda ko'maklashib o'tkazdim. Dadam keyingi paytlarda
sigirimizni tez-tez almashtirib, yangisini olib kelaverdilar.
Chunki sigirlar bizni tepib, sutini
vaqtida bermay qiynardi-da. Ammo
yangi olgan sigirimiz yuvvoshgina
chiqib qoldi. Uning suti serqaymoq,
o'zi chiroyli bo'lgani uchun
qarindoshlar: «Bolasini menga
berasiz», deb hatto tug'ilgan
bolasi uchun pul ham berib
qo'yishdi. Ammo buzoqchamiz
tug'ilgach, uni sotmaymiz deb
turib oldim. Chunki, chiroyli,
aqligina buzoq uyimizdan ketib
qolsa oilamiz huvillab
qoladigandek bo'laverdi.
Shuning uchun o'zim qatiq
ivitib, uni mahallamizda sotib buzoq uchun to'langan pulni
yig'ishga qiziqib ketdim. Xoh ishonang, xoh ishonmang, 50 ming
so'm pulni bir o'zim qatiq sotib yig'dim va buzoqchamizni
sotmaslikka dadamni ko'ndirdim. Endi buzoqcham katta bo'lib
qoldi. Uyimizda hademay ikkita sigir sog'amiz. Sigir boqqan
bolalar yaxshi bilishsa kerak, molga shirin gapirib, silab siypalab,
hurmat bilan muomala qilinsa, albatta ular tushunishadi va
aytganingizni qilishadi. Yashasin mehr, yashasin shirin so'z!



Mahfuza RIHSIBOYEVA,
Yunusobod tumanidagi 273-maktab o'quvchisi.

RAQS ZAVQ-SHAVQI

Raqs - inson ko'nglini goh junbushga keltirib, goh uzoq xayollar dengiziga tashlaydi. Jozibali kuy-qo'shiqqa raqs tushayotgan qizlarni ko'rib, beixtiyor o'zingiz ham ularga qo'shilib ketasiz.

Parkent tumanidagi 1- maktabning 6-sinfida o'qiyman, deydi Hulkar Bo'riyeva. -Ota-onam meni yoshdigimdan raqsga tushishimni ko'rishib, tuman bolalar va o'smirlar ijodiy markaziga yetaklab borishgan. Hozir bu yerda ustozim Nodira opadan raqsning nozik sirlarini o'rganayapman. Har bir raqsim menga olam-olam quvonch bag'ishlaydi. Kelajakda esa el ardorg'idagi raqqosa bo'lishni xohlayman.

Olqish

Tumandagi iqtidorli bolalar qatnaydigan bu markazda nechta soha bo'yicha ish olib borilishi bilan qiziqib, shu markazning ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Pokiza opa Inog'omova bilan suhbatda bo'ldim.

-Markazimizda 14 soha bo'yicha 500 o'quvchiga tahsil beriladi. Mana shu 14 sohaning orasida ancha rivoj topgani va o'ziga xos e'tiborga ega bo'lgani bu raqs to'garagidir. Bu to'garakka Nafisa Azimova rahbarlik qiladi. Tumanimizda bo'lib o'tadigan barcha tantanalarda, tadbirlarda to'garak qizlari muntazam qatnashib borishadi. Turli ko'rik-tanlovlarda ham ular faxrli o'rin soxibalari bo'lishadi. Men ularning kelajakdagi faoliyatlariga omadlar tilayman.

Iqtidorli bolalarni elga tanitish, ular bilan muntazam shug'ullanib, bilimlarini boyitish uchun intilayotgan Pokiza opadek izlanuvchan insonlar doimo omon bo'lishsin.

Zulayxo XOLNAZAROVA, suhbatlashdi.
Parkent tumanidagi 26- maktabning 10- sinf o'quvchisi.

«PENTUM - 4» - 15 - MAKTABGA

Toshkent viloyatining Parkent tumanidagi 15- o'rta maktab qayta ta'mirlanib, kompyuter saboqlari uchun alohida xona ajratildi. «Pentum-4» rusumli kompyuterlarkeltirilib, uni o'rganishga qiziquvchi o'quvchilar soni ko'paydi.

Bu maktab o'quvchilari fanlarni chuqur o'zlashtirishlari, sifat ko'rsatkichi darajalarining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Maktab rahbari fizika- matematika fani o'qituvchisi Raim aka Ashurov bilimdonlar uchun barcha sharoitni yaratyapti. Uning rahbarligida Davlat ta'lim standarti talablari va maqsadlariga to'la amal qilgan holda maktab jamoasi bilan bamaslahat ish rejalari tuzilib, yosh avlodni ham milliy, ham zamonaviy ruhda tarbiyalashga harakat qilishmoqda.

Abdurahim Nazarov, Matluba Musayeva, O'g'iloy Eshmatova, Komila Erova, Umida Xaytmatova, Jasur O'skanov kabi o'qituvchilardan YUqori Qo'rg'on mahallasidagi katta-yu kichik birdek xursand. Qayerdagi hamjihatlik hukmron bo'lsa, o'sha yerda unum bor, mehr bor, intilish bor.

Mukambar YO'LDOSHEVA,
Zarkent qishlog'i.

Quvonch

DEPUTAT

Hasan Xotamov - Toshkent viloyati, Chinoz tumanidagi 2- o'rta maktabning 11-sinfida o'qiydi. Chinozlik yosh deputat bilan shunday suhbatlashdik.

-Hasan, tumanimizdagi minglab bolalar va o'smirlarning vakili hisoblanasiz. Yoshlar bilan ishlashga, hali yoshlik qilaman, degan fikr xayolingizdan o'tmaganmi?

-Avvalo, yoshlik-yaratuvchanlik fasli ekanini aytmoqchi edim. Bizga bildirilgan ishonch kuch va madad manbaidir. Ishning boshida biroz cho'chidim. Yosh deputatlar kengashiga nomzodim ko'rsatilganda, siz aytgan holatni boshimdan o'tkazganman. Vaqt hamma narsaga o'rgatar ekan. Qolaversa, bu yil uchirma qushmiz. Mustaqil hayotga dadil boqishimda Bolalar parlamentining ishonchli vakili bo'lganim qo'l kelayapti.

-Shuncha ishlarga qanday ulgurasiz? Buning ustiga Respublika o'quvchi-yoshlar orasida o'tkazilgan olimpiadada tarix fanidan 5-o'rinni olibsiz?

-Hamma narsaga ulgurish qiyin albatta. Ammo Respublikamizdagi 14 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan 219 nafar yosh deputatlardan biri ekanligimni o'ylasam, hamma qiyinchiliklarim esimdan chiqib ketadi.

-«Kamolot» Yoshlar ijtimoiy harakati xomiyligidagi «Kamalak» bolalar tashkiloti, uning o'quvchilar hayotidagi o'rni haqida nimalar deya olasiz?

-«Kamalak» bolalar tashkiloti xuddi kamalakdek rangin jilosi bilan qisqa muddatda yoshlar qalbiga yo'l topa oldi. Har bir maktabdagi «Kamalak» sardorlari vijdonan ishlashsa, keyin «Kamolot»ning kamolini ko'raverasiz.

-Bo'sh vaqtlaringizni qanday o'tkazasiz?

-Bo'sh vaqtim deyarli bo'lmaydi, desam, hayron bo'lasiz. Kundalik ish tartibim bor. Ana shunga rioya qilaman. Lekin doira chalishga juda qiziqaman. Doira chalish bo'yicha viloyat ko'rik-tanlovida 2- o'rinni ham egallaganman.

-Ha, deputat - ko'zgu. U ishni uddalay olishi kerak.

Gulbahor ORTIQXO'JAYEVA,
suhbatlashdi.



SEN BILAN QO'L USHLASHIB

Yurtimiz 12 yillik tantanasini nishonladi. Ko'cha-ko'yalarda osilgan 12 raqamini ko'rib, istiqlool bilan tengdosh ekanligimdan behad quvonaman. 12 raqami faqat men bilan istiqlool uchun yozilgandek go'yo.

O'tgan yillar mobaynida ko'priklar, biri-biridan chiroyli binolar qurildi. Zamonaviy akademik litseylar ochildi. Yoshlar uchun barcha imkoniyatlar yaratib berildi.

Mana, o'n ikki yilning kuzi... Go'yoki bu kuz uzoq yillar qilingan sermashaqqat mehnat evaziga sabru qanoatli xalqimga to'kin-sochin ne'matlarini yoyayotgandek, b u y u k istiqloolni tuhfa etgandek. O'zbek xalqining o'z an'analari, qadriyatlari mo'l. Shulardan biri sermashaqqat mehnat va uzoq orzu niyatlar evaziga kelgan barcha-barcha narsalarning qadriga yeta bilish, uni dildan aziz saqlab, munosib avlodlarga meros qilib qoldirishdek sharaflari va mas'uliyatli an'ana. Bobolarimiz, buvilarimiz uzoq o'tmishda orzu qilgan istiqloolni asrab-avaylashimiz kerak. Yurtim yanada chiroy ochildi, mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!

**O'zbekiston, ona vatan,
Dunyoda eng suyuksan.
Buguning tinch, omon bo'lsa,
Kelajagi buyuksan.
Biz sening ko'z qarog'ing,
Gurkiragan chechaging,
Elim deb, yurtim deya,
Yonib turgan yuraging!**

Men istiqlool bilan qo'l ushlashib, kundan-kun ulg'ayapman. Mening yutuq va muvaffaqiyatlarim istiqlool kamolotining qatralaridir!

Ziyodabonu BEKMIRZAYEVA,
Chilonzor akademik litseyi o'quvchisi.

Faxr

Har gal Buxoroga borganimda, uning qadimiy Chor Minor, Labi Hovuz, Ark ko'chalarida yurganimda olamlarni zabt etgan allomalar ruhini his qilaman.

Muharram bibi bilan birga saranjom- sarishta hovliga kirganimizda, har galgidek Sarvinoz kutib oldi va:

BIBIJON

- Ibi, bibijonimey,- deya biz bilan mahkam quchoqlashib ko'rishdi. - Siz Toshkentga borib kelguningizcha bag'rim huvillab qoldi. Ota-onam, aka-ukalarim yonimda bo'lsa ham, sizning o'rningiz boshqacha,- derdi Muharram bibining ko'ksiga boshini qo'yib.

Muharram bibi, Jabbor bobo bor davra hamisha qiziqarli va munozarali bo'ladi. Gohida, bilib-bilmay sho'xlik qilganimizda, dars tayyorlash o'rniga ko'cha changitib yurganimizda yoki televizordagi ko'rsatuvlarni uzoq vaqt tomosha qilganimizda, albatta bizni vaqt qadriga yetishga chorlab turadilar.

O'sha kuni ham Sarvinozning ukasi kattalarning gapiga aralashdi. «Jim o'tir»,- degan Sarvinozga gap qaytardi. Shu zahoti Muharram bibi kattalar gaplashayotganda gapga aralashish, opasiga gap qaytarish juda xunuk ish ekanligini tushuntirdilar. U ham darrov tushundi va qilgan ishi uchun uzr so'radi.

Muharram bibi har bir harakatimizni diqqat bilan kuzatadigan, so'zimizni erinmay tinglaydigan mehribon va donishmand inson.

Biz farzandlar hamisha yaxshilikka yondoshamiz, yaxshilarga ergashamiz. Xonadonimiz fayzi bo'lib, uzoq yashab yuring, Bibijon!

Nilufar MO'MINOVA,
Yunusobod tumanidagi
272- maktab o'quvchisi.



Fayz

PUL QIZDAN AFZAL BO'LSA...

Onalarimiz biz qizlarning eng yaqin do'stimiz, sirdoshimiz bo'lishadi. Lekin ayrim onalarimiz ham borki, qizlarini tushunishmaydi. Natijada qizlari o'zlarini yolg'iz his qilishadi. Tengdoshim Nozima ham ana shunday qizlardan biri. Ular amakisi bilan bir hovlida yashashadi. Ota-onasi doimo tijorat ishlari bilan band bo'lgani bois, tez-tez safarlarga chiqib turishadi. Nozima kelinoyisining chizgan chizig'idan chiqa olmaydi. Biror yumushni bajarolmay qolsa bormi, naq baloga qoladi. «Ota-onang seni menga tashlab o'zlari yallo qilib yurishibdi. Bergan non-tuzimni halolab yegin-da», - degan ta'na-dashnomlar tagida qolib ketadi. Shunday paytlarda, qaniydi hozir onam kelib qolsalaru ko'ksilariga boshimni qo'yib to'yib-to'yib yig'lasam, deya orzu qiladi Nozima. Afsuski, onasidan darak bo'lmaydi. Kelganda ham qizi bilan bir pas bo'lsada suhbat qurishga fursat topa olmaydi. «Sizlarni yaxshi yedirib, yaxshi kiydiryapman. Yana nima kerak senga?» - deya kattakon sumkasini ko'tarib chiqib ketadi...

Bir kam dunyo, deb shuni aytsalar kerak-da. To'g'ri, Nozimaning hech kimdan kami yo'q. Lekin u mehrga, ONA mehriга zor!

Munisa AVAZOVA,
Toshkentdagi 85 - maktabning
6 - «A» sinf o'quvchisi.

ONAM SIRDOSHIM...MI?



Tahririyatimizga 13-14 yoshlar chamasidagi bir qiz kirib keldi. Ismini yozmay qo'ya qolay. U qiz avvallari ham maqola va xabarlar olib kelib turardi. Hamisha quvnoq kayfiyatda yurardi. Bugun esa uning kayfiyati biroz tushkunroq edi. Sababini so'rasam, e, so'ramang, judayam siqilib ketyapman, deya yuzini teskari burdi. -Dilimdagi gaplarimni kimga aytishimni bilolmay, sizning yoningizga maslahatga kelgandim. Keyingi paytlarda o'z onam bilan chiqisholmay qoldik. Ular meni hecham tushunmaydilar. Dilimdagi gaplarimni, o'z muammolarimni aytsam, eshitishni ham xohlamaydilar. Maslahat berish u yoqda tursin, jerkib-jerkib tashlaydilar...

Men ehtiyotkorlik bilan qizning qalbiga «qo'l solib» ko'rdim. Ma'lum bo'lishicha, yaqinda otasi o'z oilasini tashlab, boshqa ayolga uylanib ketganmish. Shundanmi, onasi juda asabiy, qo'rs, serjahl bo'lib qolibdi.

Bunday nohush vaziyatda kim qanday yo'l tutishi, kim kimning ko'nglini ko'tarishi lozimligi xususida qiz bilan uzoq suhbatlashdim, qo'ldan kelgancha maslahatlar berishga harakat qildim.

Uni kuzatib yubordimu hayolimdan so'zlari nari ketmasdi. Balog'at pillapoyasi bo'sag'asida o'ziga biror maslahatgo'y, yaqin sirdosh topolmay yurgan u kabi qizlarimiz qanchadan-qancha. Shularni inobatga olgan holda gazetamiz sahifalarida «Onam sirdoshim...mi?» deb nomlangan yangi rukn tashkil qilishga qaror qildik.

Ushbu ruknimizga o'smir qizlarimiz o'z fikr-mulohazalari, o'ylantirayotgan muammolari haqida yozishlari mumkin. Onalarimiz, ruxshunos ustozlarimiz ham o'smir qizlarimizdan maslahat va o'g'itlarini ayamasalar, ayni muddao bo'lardi.

«Istiqlol umidlari» to'garagimiz mashg'ulotlaridan birini aynan ana shu dolzarb mavzuga bag'ishladik:

O'ZIGA «SIRDOSH» TOPDI

Bu yil Sadoqat ancha ulg'ayib qoldi. His-tuyg'ulari, qarashlari ham o'zgardi. Sinfidagi bir bolani pinhona sevib qolishga ham ulgurdi. O'zi ham to'liq anglab yetolmagan tuyg'ulari haqida onasi bilan gaplashgisi, sirlashgisi keladi-yu ammo onasi qizi uchun vaqt ajrata olmaydi.

Shunday kunlarning birida ularning sinfiga Noila ismli bir qiz keldi-yu Sadoqatning eng yaqin sirdoshiga aylandi.

Nima bo'ldi-yu dugonalar orasiga sovuqchilik tushib, urishib qolishdi. Shunda Noila Sadoqatning unga ishonib aytgan sirlarini hammaga fosh qilib yubordi. Sadoqatning xolatini bir ko'rsangiz edi. Hammadan ham ota-onalar majlisida onasini o'rta qiqarib qo'yib mulzam qilishgani o'tib tushdi. Uyga kelgach bor alamini qizidan oldi. Shunda Sadoqat bor gapni onasiga aytib berdi. Shundagina onasi o'z kamchiligini tushundi, qizi uchun ko'proq fursat ajratishga ahd qildi. Bundan Sadoqatning boshi osmonga yetdi.



Maftuna QO'CHQOROVA,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi
179 - maktabning 6 - «G» sinf o'quvchisi.

SEVGIDAN SO'Z OCHMANG...

Men bir narsaga tushunolmayman: Nima uchundir bizni oq yuvib, oq taragan onalarimiz o'smirlik davriga yetganimizda, (aynan o'sha tentak, sodda paytlarimizda) bizga yordam qo'lini cho'zishni xohlamaydilar. Sevgidan so'z ochsak, jerkib tashlashadi. Eshitishni ham istashmaydi. Axir ular ham bir paytlar yosh bo'lishgan, sevib-sevilishgan-ku. Nima uchun biz onalarimizga dilimizdagi gaplarimizni ochiq ayta olmaymiz? Sirlarimizni dugonalarimiz bilan o'rtoqlashamiz. Ulardan maslahat so'raymiz. Axir ular ham xuddi bizlardek g'o'rlar-ku. Ularning ko'r-ko'rona maslahatlariga kirib, biror xatolikka yo'l qo'ysak, nima bo'ladi?

Shular haqida o'ylar ekanman, barcha onalarimizga qarata, aziz onalar, biz qizlaringizdan dono maslahatlaringizni ayamang. Bizni to'g'ri tushunishga harakat qiling, degim keladi.

Nodiraxon HOSHIMOVA,
169 - maktabning 9 - sinf o'quvchisi.

Xurshida va Lobar qalin dugonalar. Bir kuni ularning sinfiga Dildora ismli yangi qiz keldi. Uning 3 yoshli hamda 5 oylik ukalari borligi bois, onasi Dildoraning o'qishlaridan xabar olib turishga har doim ham fursat topavermasdi. Qolaversa, qiziga juda ishonardi... Dildora esa boshqa qizlarning ta'siriga berilib darsdan qochadigan, hatto o'g'rilik qiladigan odat chiqardi.

Bugun ham qizlar darsdan qochib, aylanib kelishni rejalashtirishdi. Xurshida va Lobarining hech kimdan ruxsat so'rashlari shart emas. Chunki bu paytda onalari ishda bo'lishadi. Dildoraga esa javob olishi uchun biror ishonarliroq bahona kerak.

-Oyijon, bizni teatrğa olib borisharkan, pul bering,-dedi hech ikkilanmay. «Boshqa safar borarsan. Ukalaringga qarab tursang, yumushlarimni bajarib olardim», -deya zorlangan onasining gaplariga parvo ham qilmadi. Yer tepinib, boraman, deb turib oldi. Onasi noiloj



SABOQ

rozi bo'ldi. Orqasidan: «Ehtiyot bo'lib borib kelinglar» deya tayinlashni ham unutmadi.

Qizlar katta ko'chani kesib o'tishayotgandi. Kutilmaganda bir mashina kelib Dildorani turtib yubordi. Xurshida va Lobarlar qo'rqib, qochib qolishdi. Xushsiz yotgan Dildoraga yo'lovchilar yordamga oshiqishmaganda, bilmadim, hol ne kechardi?!

O'ziga kelib, ko'zini ochganida tepasida yaratgandan qiziga shifo tilab, zor-zor yig'lab o'tirgan onasini ko'rdi.

Bu mash'um voqea Dildoraga saboq bo'ldi. Onasining dilini og'ritmaydigan, so'zini ikki qilmaydigan qiz bo'lishga ahd qildi. Dunyodagi eng yaqin do'sti ham, sirdoshu maslahatgo'yi ham onasi ekanligini anglab yetdi.

Muyassar ILHOMOVA,
Akmal Ikromov tumanidagi
228 - maktabning 7 - «G» sinf
o'quvchisi.

Tongga yaqin qor yog'ishdan to'xtadi. Zaminu zamon muzladi. Havoning sovuqligi tobora oshib borardi. Ammo shunga qaramay, bugun odamlar serrataddud ko'rinar, bozorga shoshilishardi. Hammaning bir tashvishi bor edi, ro'zg'oridagi asbobu anjomlarini, narsa-yu mollarini bozorga eltib, g'alla yo non sotib olishga oshiqardilar. Yo'l piyoda-yu otliqqa to'lib ketgandi.

Egniga yo'l-yo'l qora satin chopon, oyog'iga yirtiq etik kiygan, ro'mol bilan boshini to'quloqlarigacha o'rab olgan, taxminan o'n besh-o'n olti yoshlardagi bola yo'lakdan katta yo'lga chiqdi-da, bozorga ketuvchilarga hamroh bo'ldi.

-Ha, Rustam, shu sovuqda qayerga borayapsan?-so'radi o'zini egarning ustida chakmon bilan yaxshilab o'rab olgan mo'ysafid otining jilovini tortib.

-Bozorga, - dedi Rustam.

-Nima olib borayapsan?

Rustam mo'ysafidning gapiga nima deb javob berishni bilmay, o'zini

birozgina orqaga tortgancha cho'ntagiga qo'l soldi. U otasi urushga ketganidan so'ng kasallanib to'shakka yiqilgan va bir necha kun oldin olamdan ko'z yumgan rahmatlik onasining isirg'alarini cho'ntagidan chiqardi.

Isirg'aning bargaklari nafis tebranib, ohista jarangladi. Tanish sado. Har safar Rustamning onasi ishdan xursand holda kelsa, tabassum bilan boshini qimirlatardi.

Shunday lahzalarda isirg'aning bargaklari xuddi hozirgidek tebranib, nafis sado berardi. Isirg'alar unga juda ham yarashardi va Rustamning onasi ularni hech qachon qulog'idan olmasdi. Isirg'alarini u olamdan ko'z yumgan kuni qo'shni xotinlar qulog'idan olib, uning vasiyatiga muvofiq Rustamning katta singlisi

Habibaga berishgandi. Hozir Rustam onasining o'sha isirg'alarini bozorga eltib, nonga almashtirib qaytmoqchi edi. Boshqa iloji ham yo'q. Rustamning singillari Habiba va kichkina Nazira ikki kundan beri och o'tirishibdi.

Kecha kechqurun Rustam o'zining nasibasi bo'lgan bir parcha qattiq nonni ham singilchalariga berdi. Axir, Rustam endi uyning kattasi. Singilchalarini yedirish va kiydirish endi uning zimmasida.

....Bugun ikkinchi kundirki, Rustam non uchun kar Bo'ring uyiga boshqa borgan emas va Bo'ri ham endi ularning uyiga kelmaydi. U yomon odam ekan.

-Keldingmi, Rustam, kelaver, - har kungi holatiga zid o'laroq bugun kar Bo'ri negadir Rustamga ochiq chehra bilan peshvoz chiqdi. Uni uyga kirishga taklif qildi.

-Rustamjon, non ko'p, parvo qilma, senga to' kelgusi yilgacha yetib ortadi, ana o'zing ko'r.

Kar Bo'ri Rustamni kulbasiga olib kirib, uyning bir tarafiga terib chiqilgan ikki xalta quruq nonga ishora qildi.

-Lekin Rustamjon, bir maslahat, - kar Bo'ri siyrak moshguruch soqolini barmog'i bilan tarab davom etdi: -Habibani menga berasan.

Kar Bo'ri yana nima dedi, Rustam uni eshitmadi. Osmon go'yo boshiga ag'darilganday edi. Kar Bo'ri nima uchun onasining vafotidan so'ng ularga mehribon bo'lib qolganini u endi faxmladi.

....Ertalab Rustam otasidan xat oldi. U Rustamning onasi vafot etganligidan xabardor bo'libdi. Maktub kuyib-yonib yozilgan edi. Otasi Rustamga tasalli berib xatning so'nggida shunday yozgan edi:

«Endi, Rustam, sen uyning kattasisan, singillaringni ehtiyot qil, o'zingni qo'lga ol»...

Rustam endi uyning kattasi. Qanday qilib bo'lsa ham singilchalariga yegizib-ichkizadi. Ammo hech qachon ularni non uchun kar Bo'riga sotmaydi.

Rustam ochligi uchun birdan o'zini behol his qildi. «O'zingni qo'lga ol, Rustam, sen endi uyning sohibisan».

Rustam onasining isirg'alarini qaytadan cho'ntagiga soldi. Otliq mo'ysafid tepalikning atrofidan aylanib o'tib, ko'zdan yiroqlashgan edi. Rustam bozorichilar qatorida qadam tashlardi...

Bozor. Qishning kuchsiz quyoshi ko'plab odamlar yig'ilishib qirg'og'ida oldi-sotdi qiladigan Kofarnihon daryosining yuzini yoritib turardi. Daryoning suvi muz

ISIRG'A

(hikoya)

qavatlaridan sadosiz oqib chiqardi. Uning zarralari toshlarning yuziga sochilib muzga aylanar, toshlar xuddi oyna kabi shaffof yaltirardi.

Sovuq shamol esardi. Odamlar tishlarini tishlariga qo'yib, qahraton sovuqqa toqat qilib turishardi.

Bozor esa tobora qizib borardi. Ana, jussasi barvasta, mo'ylovli bir haridor onasining isirg'alarini qo'lida tutgancha xayolga g'arq bo'lgan Rustamning qarshisida to'xtadi.

-Isirg'alarni sotasanmi, yigitcha?-deya qo'lini uzatdi u.

«Nima? U onasining isirg'alarini shu odamga sotadimi? Axir onasining vasiyati boshqa edi-ku. Yo'q, yo'q. Ochlikka chidasa chidaydi-yu, lekin isirg'alarni

sotmaydi».

...Rustam onasining isirg'alarini qo'yin cho'ntagiga soldi. Mo'ylovli odam g'oldiragancha uning oldidan o'tib ketdi. Rustam ham bozordan chiqdi. Katta yo'lning chetiga o'tib, bir toshning yuzidagi qorlarni qo'llari bilan supurdi. Yo'q, u onasining isirg'alarini sotmaydi. Ammo non topishi kerak. Qaysi yo'l bilan? Ochlikdan Rustamning boshi aylandi. U darmonsizlangan holda toshning ustiga o'tirib, boshini kaftlari orasiga oldi. Hozir singilchalari uyqudan uyg'ongandir. Ular ham och qolishgan, «non» deyishadi. Rustam ular uchun non topishi kerak. Lekin non yo'q. Qishloqqa qanday qilib boradi?

Rustam o'rnidan turdi. Endi o'tob qiyomiga yetib, bozorda odamlar ancha kamaygan edi. Rustam yo'lga tushdi. Qayerga boryapti u? Qishloqqami? Uning boshiga kutilmaganda bir fikr keldi-yu, bir necha qadam nariroqda kimningdir kulbasi oldida tomning yog'ochiga bog'lab qo'yilgan ikki ot tomonga qarab yurdi. Otlar donga to'la to'rvalardan kumir-kumir qilib arpa yemoqda edi.

Rustam atrofga olazarak nazar tashladi-da, shoshilinch ravishda boshidagi ro'molini yechib, yerga yozib qo'ydi. O'tning boshidan to'rvani olib, arpani tezlik bilan ro'molga to'kdi. To'rvaning bandini yana qaytadan o'tning boshiga tortgan ediki, ro'parasida qo'lida qamchin tutgan bir odam paydo

**Inson degan sharaflı nomni
Inson bo'lib oqlang, odamlar.
Bizga tinchlik kerak, urushning
Olovini yoqmang odamlar!**

Feruza OY

bo'ldi. «Qani, yetimcha, menga qara-chi?» Hali Rustam to'rvadan qo'lini olmagan ham ediki, o'tning egasi Rustamning yuzu boshi aralash bir necha qamchi tushirdi. Uning ko'zlari va yuzidan oqqan qon oppoq qor yuzida qip-qizil dog'lar paydo qildi. Rustam dodlagancha yerga yiqildi. Uning va ot egasining atrofini bozorchi odamlar qurshab olishdi. Ular voqeadan xabardor bo'lgach, ot egasiga tanbeh berdilar. Bir yetim bolani behudaga urib, mayib qilibdi. Nahotki, kap-katta odam bir bechora bolani shu qadar berahmlik bilan ursa, deb kuyinishdi.

Haligi odam ham o'zining berahmligidan hijolat chekib, Rustamni choponini yoqasidan tutgancha qorning ustidan ko'tardi-da, ro'molidagi arpani qo'lga berib, dedi:

-Ol, yetimcha, yo'qol bu yerdan!

Arpa tugilgan ro'molni unga qaytarib berishganini ko'rib, Rustam o'z ko'zlariga ishonmasdi. U ro'molni qo'lga olib, hamma dardu azoblarini unutganday bo'ldi. Rustam odamlardan uzoqlashib borardi. Lekin hamma unga rahmdillik bilan qarab turardi.

U onasining isirg'alarini sotmasdan singilchalari uchun yegulik non topdi. Arpani kelida yanchib, un qiladi. U uyning erkagi-ku axir, qanday qilib bo'lmasin, singilchalarini ovqatlantirishi kerak... Rustam gandarab ketdi-yu, yerga yiqildi. O'rnidan turmoqchi bo'ldi, ammo madori yetmadi.

-Rustamjon, tur o'ringdan, qo'lingni menga ber....- onasining qo'li unga tomon uzatilgan edi.

-Yo'q, men o'zim turaman, onajon, - Rustam o'rnidan turishga urindi.

Yarim turgan holatda ariqning ichiga yiqildi. Sovuqdan butun badani jimirlab ketdi-yu, hushiga keldi. Kimdir uning qo'lidan tutib, joyidan turg'izdi.

Havo qorong'ulashib, yana qor yog'moqda edi. Qishloqqacha hali ancha yo'l bor. Rustam arpa tugilgan ro'molni qo'lida tutgancha yo'l o'rtasida behush holda qadam tashlab borardi.

Qishloqning chiroqlari ko'zga tashlandi. Rustam ro'molni qorning ustiga qo'yib, yo'lning chekkasiga

o'tirdi. Boshi va yuzlaridan ter suvday oqar, a'zoyi badani tol bargagiday titrardi. Qancha urinmasin, u o'rnidan qaytib turolmadi. U yerda singilchalari ko'zlari to'rt bo'lib uning yo'lga qarab turishibdi. Ammo Rustam boshqa qadam bosolmasdi. Yana o'rnidan turmoqchi bo'ldi, lekin boshi aylanib o'tirib qoldi. Qishloqdag i chiroqlar uning nazarida shamday o'chib borardi...

-Rustamjon, tur, kel, yana ozgina yo'l qoldi, - onasi yana unga tomon qo'lini uzatdi.

-Rustam, endi sen uyning kattasisan, uyni va singilchalarini ehtiyot qil, - otasining ovozi eshitdi. Ammo Rustamning joyidan turishga darmoni yo'q edi. Ochlik uni oyoqdan toldirgandi. Yuzi qor kabi oqarib borardi...

K. MIRZO.



KO'PIRIB BORADI QO'NG'IR BULUTLAR

Mezon - tarozi. 22 sentabrdan 20 oktabrgacha davom etadi. 29 kun.

Hijriy - Shamsiy yil hisobiga ko'ra mezon burji bodiy (kuz)ning birinchi oyi sanaladi. Ayni paytlarda erta sahar, tong qorong'usida samoyoritqichlariga nigoh tashlasangiz,

Quyosh yo'lining 180-210 darajalarida turuvchi Tarozi yulduzlar turkumi osmon gumbazining qoq o'rtasida charaqlab turadi. Mezon doxil bo'lgan paytda kecha bilan kunduz teng 12 soatdan bo'ladi. Oy davomida o'rtacha harorat 16-20 darajani tashkil etadi. Ba'zi yillar tabiat bu qoidaga bir qadar o'zgartirish kiritishi, ya'ni havo ancha isib yoki aksincha, sovib ketishi ham mumkin. Mezonning o'rtalari va oxirida sovuq kunlar, hatto durustgina yog'ingarchiliklar bo'lishi ehtimoldan holi emas. Manbaalarda 1949, 1957 va 1985 yillarning 12 oktyabrida (22 mezon) hatto birinchi qor yoqqanligi qayd etiladi. Yog'ingarchilik bu oyda o'rtacha 20-25 millimetrni tashkil etishi kerak. Sahovatli kuzning ziynatu fazilatlari sumbula bilan shu oyda, ayniqsa, ko'proq namoyon bo'ladi. Vaqti-vaqti bilan ipaksimon oppoq tolalar ucha boshlaydi. Mezon paxtasi, deyishadi uni xalqimiz.

Mezon shamoli va oftobida hikmat ko'p. Shu sababli tadbirkor dehqon taomilga ko'ra qishga saqlanadigan mahalliy nav olma, nok,



nashvati, anor va boshqa mevalar, oshqovoq, qovun-tarvuzni, asosan, mezon shamoli tekkandan so'nggina yig'ib olinadi. Navro'z kunlariga atab saqlanadigan qovun-tarvuzni uzganidan so'ng ham o'n-o'n ikki kun yana mezon oftobiga yoyib oladi. Butaomilga

Qo'qon, umuman, Farg'ona vodiysi dehqonlari ko'proq amal qilishadi. Shuning uchun ham ular har yili Navro'z saylida jumhuriyatning bozorlarini qovun-tarvuz, oshqovoqqa to'ldiradilar. Hatto, ilonlar mezon oftobida uch-to'rt kun rosa toblangach, iniga kirib qish uyqusiga ketadi.

Mezon kirishi bilan daraxt yaproqlari uchidan sarg'ayib, bog'-rog'lar tilla rang libosga burkana boshlaydi. Oltin kuz hukmronlikni qo'lga oladi.

Bog'bonlar bu oyda uzum va kuzgi mevalarni qoldirmay to'laligicha yig'ib-terib oladilar. Anorni esa sal keyinroq, ya'ni uchki barglari bir qadar sarg'aya boshlaganidan so'ng yig'ib olgan ma'qul. Negaki, so'nggi gullardan paydo bo'lgan anor donalari shu oyda to'lishib, qip-qizarib pishadi.

Sohibkorlar tok, anjir va anor novdalarini kesib, saralab shu oyda ko'mishga shoshiladilar. Jo'yaklarni qavs va chilla suvi berishga hozirlaydilar. Mevali daraxt qator oralari, bog'lar, sabzavot va boshqa ekinlardan bo'shagan maydonlarni sifatli shudgor qiladilar.

G'allakorlar kuzgi don ekishni boshlab yuboradilar. Bu oyda ekilgan don maysasi tez unadi va sovuq tushgunga qadar panjalab qoladi. Yerga mustahkam tomir qo'yib ulguradi. Bunday maysalarga qish sovug'i hadeganda ta'sir o'tkazolmaydi. Qor ko'rpasi ko'tarilib, bahor nafasi esishi bilanoq gurkirab o'saveradi.

-Qani, tarvuzni qo'chqorning boshiga ur, - deyishadi keksa chorvadorlar, - urug'i sochilib ketsin.

Uch kunda kuz keldi.

Dunyo qaridi.

Teraklar bosh chayqab qoldilar ma'yus.

Toshlar o'rmaydi anhor qa'rida,

Anhor qaylargadir shoshadi hanuz.

Ko'pirib boradi qo'ng'ir bulutlar, Hademay yomg'irzor bo'ladi paydo.

Yerga quloq bosib yotadi o'tlar,

Yerdanmi keladi bu mungli navo?..

Iqbol MIRZO.

Bahorda yaylovga qo'sha-qo'sha qo'zilar xuddi shunday sochiladi.

Xalq hisobdonlari yig'iterimni, xususan, paxta yig'iterimini iloji boricha mezonda tugallash zarur ekanligini qayta-qayta maslahat beradilar. Negaki, bu oyda kunlar ikki soatdan ko'proq qisqaradi, so'ngra achchiq-ayozli, yog'in-sochinli damlar boshlanadi.

Abdul HAMID tayyorladi.

BOLALIGIM OLIB QAYTING

Kuz, daraxtlarda sarg'aygan yaproq, Ba'zi yaproqlarning oxirgi sasi.

Holiga qo'ymasdi ularni titroq,

Uzilib tugadi so'nggi nafasi.

Quyosh botishlari o'zgacha xasta,

Yulduzlar chaqnaydi endi jim, sokin.

Oy ham g'ildiraydi o'yi-la asta,

Endi kuzga navbat - bog'imga hokim.

Dalalar qo'ynida qovjirab qolib,

Maysalar qismatin kutadi xomush.

Turnalar qaytarkan arg'imchoq solib,

Samoni to'ldirib qiladi nolish.

Xazonlar bag'rida yongan chorbog'im,

Ma'yus boqib, dilgir aylaydi meni.

Sog'inib yashayman bolalik chog'im,

Endi qayerlardan topayin seni?

Bolaligim olib qayting, turnalar...

RAXSHONA,

Farg'ona viloyati,

O'zbekiston tumanidagi

4 - maktabning 10 - sinf o'quvchisi.

Yoz keldimi, pashsha, chivin, so'na va talay xira hashoratlar sigiru otlarga, Afrikada esa ohu va zebralarga mo'r-malaxday yopishib, joniga ozor beradi. Agar jonivorlarning dumi bo'lmaganda bormi, haligi

xi r a pashshalar ularni sira-sira tinch qo'ymagan bo'lardi.

Hayvonlar dumining xizmati xilma-xil. Aytaylik, it dumini likillatayaptimi, demak u xursand. Buni hamma biladi. Ikkita it uchrashgandagi holatni kuzatganmisiz? Birining dumi



HAYVONGA DUM NEGA KERAK?



Boshqasining esa dumi osilgan yoki oyog'i orasiga qisib olgan, bu «bilaman, sen kuchlisan, senga bo'ysunaman» degani bo'ladi.

Bug'u podalarini qo'riqlaydigan shimol itlari - laykalar qahraton qishning izg'irida

ko'tarilgan, bir oz silkinib-silkinib turibdi. Bu «men sendan zo'rman, lekin yomonlik qilish niyatim yo'q», degan ma'noni bildiradi.



yumshoq dumi bilan o'ranib yotadi. Izg'irin turganda esa ular qor kavlab o'ra qiladida, g'ujanak bo'lib yotadi va sovuq oldirmaslik uchun momiqday dumi bilan burnini berkitib oladi.

Bo'ri va tulki ham xuddi shunday o'ranib yotadi. Aytgandek, bu hayvonlar yugurayotganda tez burilishi uchun dum rul vazifasini ham o'taydi. Dum ularga yugurayotganda, olmaxonga esa sakrayotganda yordam beradi.

Maymunlar haqida so'z borganda, ba'zida «to'rt qo'lli» jonivorlar ham deyishadi. Nima

ham deyish mumkin, butun hayoti daraxt ustida o'tadigan hayvon uchun to'rtta baquvvat panja juda ham zarur: bitta panjasi bilan shoxga osilib turadi, ikkinchisi o'ljasini ushlaydi, uchinchi



bilan to'rtinchisi esa bu paytda boshqa shoxga o'tish taraddudida bo'ladi.

Ba'zi maymunlarga hatto to'rtta panja ham kamlik qiladi. Ular dumidan ham unumli foydalanadi. Maymun dumi bilan daraxtga

osilib turib, g'arq pishgan mevalarni mazza qilib yeydi. Qorni to'yib, qayg'u ketdimi, endi dumga osilib olib arg'imchoq uchsa bo'laveradi.


USTOZ BORKI OLAM MUNAVVAR

Bu yil men uchun juda omadli yil bo'ldi. O'zim tahsil olayotgan Usmon Nosir nomli Toshkent Matbaa kollejida a'lo baholarga o'qiganim uchun «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan «Umid yorlig'i» bilan taqdirlandim. Bu yuksak mukofot nafaqat menga, balki kollejda tahsil berayotgan barcha ustozlarimga berildi, deb o'ylayman. Chunki, malakali o'qituvchilarimiz bizga yaxshi saboq berishganki, biz ulkan muvaffaqiyatlarga erishyapmiz. Buning uchun ularning baridan minnatdorman. Ayniqsa, o'zining xushfe'lligi, shirinso'zligi bilan ajralib turadigan ustozlarimiz Gulnasta opa Alekperova, Dilorom opa Xudoyberdiyevlarni juda yaxshi ko'ramiz. Shuningdek, o'zim tahsil olgan Husayn Shams nomli 4-maktabdagi ustozlarimdan ham behad mamnunman. Chunki ularning bergan saboqlarini yaxshi o'zlashtirib olmaganimda, hozir a'lochilar qatorida bo'lmasdim-da.

Bayramlar, tantanalar yarashadigan yurtimizda yaqinda yana bir bayramni - O'qituvchilar va Murabbiylar kunini nishonlaymiz. Shu munosabat bilan o'qituvchilarimni, yurtimizdagi barcha ustoz va murabbiylarni samimiy qutlayman. Ularning sermashaqqat, shu bilan birga o'ta ma'suliyatli va xayrli ishlarida muvaffaqiyatlar tilayman.

Odil QOSIMOV,
Toshkent Matbaa kolleji talabasi.

Biz o'qitish haqida gapirganimizda, kim degan savoldan ko'ra nima degan savolga ko'proq urg'u berib o'rganganmiz. Tan olinganki, o'rganish ta'lim jarayonidan ajrab chiqqan alohida narsa emas. Shunisi aniqki, o'qituvchining roli - eng muhimdir, faqat u o'quvchilarda tahsil olayotgan faniga qiziqish uyg'otish orqali o'qiyotgan fani va olayotgan bilimiga ishtiyoq paydo qila oladi, binobarin, o'qituvchi shu orqali o'zining o'quvchilari bilan yaqin aloqa o'rnatiladigan shaxs hisoblanadi.



Suratni
283-maktab
o'quvchisi
Malika
KARIMOVA
chizgan.

SAHRODA KO'Z OCHGAN BULOQLAR

Qashqadaryo viloyatining Muborak tumani haqida eshitganmisiz? Ha, to'rt tomoni yaydoq cho'l. U yerdan milliy boyligimiz gaz, neft qazib olinadi. Yana bir narsa, mamlakatimiz aholisi iste'moliga taqsimlanayotgan gazning 86 foizini Qashqadaryo viloyati yetkazib berar ekan.

Shaharda ko'p qavatli uylar, tashkilot binolari, istirohat bog'lari, bozor, sport maydonlari, qo'yingki, aholi ehtiyoji uchun zarur maskanlarning hammasi mavjud. Shaharning o'rtasidagi tuman amfi teatrining borligi kishini quvontiradi.

-Tumandagi barcha anjumanlar, tadbirlar mana shu yerda bo'lib o'tadi,-deydi «Kamolot» Yoshlar ijtimoiy harakati Muborak tuman bo'limi raisi Shavkat aka Mehmonov.-Bizda iste'dodli yoshlar juda ko'p. O'tgan yili adabiyotga ishtiyoqmand, she'r mashq qiladigan yoshlarning asarlaridan «Sahro yulduzlari» to'plamini chop ettirdik. Tumanimizdan Shahnoza Rahmonova 2001 yil Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Shu payt teatr yonida barpo etilayotgan «Yoshlar sport majmui»ga ko'zim tushdi. Yengil atletika, og'ir atletika, kurash maydonchasi, ayniqsa, zalning o'rtasida joylashtirilgan boks ringini ko'rib quvondim. Viloyatda yuqori o'rinda turadigan, 15000 kishiga mo'ljallangan o'yingoh, yonidagi zahira futbol maydoni, katta ochiq va yopiq tennis kortlari albatta diqqatingizni tortadi.

-Huv anavi basketbol maydonida yaqinda mahallalar o'rtasida basketbol musobaqalari bo'lib o'tdi. «Yoshlik» mahalla fuqorolar yig'inining «Yoshlik» jamoasi tuman va viloyat g'olibi bo'lib ushbu musobaqaning respublika bosqichida ham ishtirok etishdi.

Yaqinda «Ekosan» jamg'armasi bilan birgalikda Milliy kurash bo'yicha musobaqa o'tkazdik. Unda 5 vazn bo'yicha viloyat miqyosidagi polvonlar ishtirok etishdi.

Hukumatimiz tomonidan shu yil bolalar sportini rivojlantirish bo'yicha qaror qabul qilingandi. Bu qarorning ijrosi Muborakda ham birinchilar qatorida amalga oshirila boshladi. Biror bir ishga sidqidildan qo'l urilsa, natijasi albatta yaxshi bo'lar ekan.

Ha, aytganday, Muborakda muvaffaqiyatga erishgan har bir iqtidorli yoshning «Oltin», «Kumush», «Bronza» medallari bor. Buni o'sha bolaning boshqalardan ajralib turishi, o'rnak bo'lishi uchun «Kamolot» Yoshlar ijtimoiy harakatining tuman bo'limi tashabbusi bilan ta'sis qilingan. Albatta rag'bat yashxi-da! Rag'bat kishini harakatga undaydi. Harakatning mahsuli esa muvaffaqiyat. Sahro bag'ridagi bu hudud yoshlari yuqoridagi gaplarni shior qilib olishgan.

Faxriddin HAYITOV,
Qashqadaryo viloyati.

MAKTAB FORMASI MAJBURIYMI?

Albatta, majburiy. Axir maktabga xushbichim libosu taqinchoqlarni ko'z ko'z qilishga emas, bilim olishga boriladi-ku. Undan tashqari, estetik jihatdan ham bir xil kiyingan o'quvchilar tashqaridan kelgan inson ko'ziga chiroyli, tartibli ko'rinadi. Xizmat yuzasidan juda ko'p maktablarda bo'lganman. Har bir maktabning husni avvalo o'sha yerda ta'lim oluvchilar odobi-yu ko'rinishiga bog'liq. Undan tashqari, forma ixtisoslashgan ta'limga mos ravishda bo'ladi. Aytaylik, ingliz tili chuqurlashtirilib o'qitiladigan Yunusobod tumanidagi 17-maktabning talabiga zamonaviy jinsi matosidan tikilgan o'g'il bolalar uchun shim, nimcha, kostyum, kurtka bo'lsa, qizlarga yubka-nimcha muvofiq. Mirzo Ulug'bek tumanidagi Ijtimoiy yo'nalishdagi Respublika maxsus gimnaziyasida diplomatik muhit hukmron. Barcha o'g'il bolalar qora rangli kostyum-shim, bo'ynida galstuk, qizlar oq kofta, qora yubka kiyib, sochlari ham orasta turmaklanadi. Aksariyat maktablarda shu tartib o'rnatilgan. Biroq, tahririyatimizga kelgan shikoyat xati kishini biroz ajablantiradi. Unda yozilishicha, Sirg'ali tumanidagi 266-maktabda qizlarga havo rang ko'ylak, oq fartuk kiyish majburiy ekan. O'sha maktab o'quvchilarining ota-onalari arizalariga ko'ra kimda-kim sho'ro davrini eslatib turuvchi, yana xizmatkorning kiyimiga o'xshash formani kiyib kelmasa, tonggi yig'ilishda barchaning oldida uyalmay netmay 500 so'mdan yig'isharkan. Ajablanib so'radim:

-Nima uchun?

-Jarima sifatida-da. Maqsad - o'quvchilardan pul yig'ish. Maktabning o'zi talabga javob bera oladimi, o'qituvchilar yetarlimi, barcha o'quvchilar darsliklar bilan ta'minlanganmi, qolaversa, bolalar nashrlariga obuna bo'lishganmi - bular rahbariyatni qiziqitirmaydi. Agar tongda ular talab qilayotgan o'sha fartukli forma bo'lmasa, maktabdan haydashadi. Endi tasavvur qiling, farzandini o'qishga jo'natib, o'zi ishga ketgan ota-onalar maktab yig'ilishida izza bo'lib, jarima to'lab, kamiga maktabdan qaytib, ko'chada tentirab yurgan bolalari taqdiridan bexabar bo'ladi. Bilimni bekorchilikka almashtirib yuborayotganlar kammidi?

Ota-onalarning gapida jon bor. Farzand tinch yursa, ish barakali, unumli bo'ladi. Maktab formasi esa ota-onalar bilan kelishilgan holda, ularning imkoniyatlari hisobga olingan tarzda bo'lishi kerak deb o'ylayman.

Muharrama PIRMATOVA.

Qo'ng'iroq chalinib, adabiyot darsi boshlandi. Sinfga ko'zlarida bir olam mehr bilan muallima kirib keldi. U darsni boshlar ekan, barchamiz bor vujudimiz bilan unga ko'z tikib, quloq tutardik. Ustozimiz Usmon Nosirning «Yurak», «Yana she'ringa» she'rlarini yoddan juda ta'sirli qilib o'qib berganida biz hayajon bilan tingladik. Ustozimiz she'r mazmunini so'zlab bizni birma-bir she'rni ifodali o'qishga chaqirdilar.

Ha, adabiyot darslari men va tengdoshlarim uchun bayram bo'lib ketadi. Bu fandan saboq beradigan ustozimiz Nasiba opa Mirzaahmedova 13 yildirki shogirdlarga mehr ko'rgazmoqdalar. Yoshlik davrlarida maktabni oltin medal bilan tamomlagan ustozimiz oliygohni ham imtiyozli diplom bilan tamomlagan ekanlar. Ularning har bir darslarini intizorlik bilan kutamiz. Chunki ular har bir darsni yangicha uslublar bilan o'tishga harakat qiladilar. O'z fanining fidoyisi bo'lgan Nasiba opa haqida to'lib toshib yozgim kelaveradi. Ularga qarata «Sizga ming bor ta'zim, aziz muallim»,-deyman.

Hilola UMAROVA,
Namangan viloyati, Chust tumanidagi
28-maktabning 7-sinf o'quvchisi.





YAPONIYANING RAMZI - SAKURA

Yaponiyaning tabiat manzarasi juda ajoyib va go'zal. Yaponiya Tinch okeanining sharqiy qit'asi qirg'oqlari yaqinida joylashgan 6800 ga yaqin orollardan tashkil topgan bo'lib, ularning umumiy maydoni 378 ming kvadrat kilometrga tengdir. Mamlakat maydonining 99 foizi asosan eng yirik to'rtta orol - Hokkaydo, Xonsyu, Sikoku, va Kyusyu orollariga to'g'ri keladi. Shimoldan janubga tomon cho'zilgan Yaponiya arxipelagining uzunligi 3000 kilometrni tashkil etadi. Yaponiya qirg'oqlarini Tinch okeani hamda Yapon, sharqiy xitoy va Ov dengizlarining suvlari yuvib turadi.

Yaponlar o'z yurtlarini sevib ardoqlaydilar. Balandligi 3776 metrga yetadigan Fudzi tog'i Yaponiyaning lirik timsoliga aylangan. Bu davlatning kattagina qismi iliq iqlim sharoitli zonada joylashgan bo'lib, bu yerlarda yilning barcha fasllari o'zgacha tarovatli bo'ladi. Yaponlar tabiatni sevadilar, shuning uchun har bir faslning o'ziga yarasha go'zalligini topa oladilar. Ko'pgina milliy bayramlar va odatlarning ham yil fasllari bilan bog'liqligi bejiz emas.

Orollarda joylashgan bu davlatning hozirgi kundagi shakli doimiy vulqonlarning faolligi hamda yer yuzasiyu qirg'oqlarning ular ta'sirida o'zgarishlari natijasida yuzaga kelgan ekan, Yaponiyaning manzarasi takrorlanmas go'zalligi bilan ajralib turadi. Mamlakatning deyarli uch qismini egallagan viqorli tog' tizmalari orasida vodiylar joylashgan. Bu tekisliklarga esa yam-yashil tepaliklaru daryo va ko'llar alohida bir go'zallik va manzara baxsh etadi.

Lekin bu orollardagi hayotni osoyishta va rohatli deb bo'lmaydi. Bir yil davomida bu yerlarga 1700 mm.gacha yog'ingarchilik yog'adiki, bu ko'rsatkich yomg'irli Buyuk Britaniyaga qaraganda ancha ko'pdir. Bu bilan birga tayfun hamda tropik yomg'irlarni, tez-tez yuz berib turadigan zilzilalarni hisobga olish lozim.

Faqatgina Yapon xalqining hayratlanarli matonati mehnatsevarligi bois nafaqat mamlakatning tabiat inijliklariga bardosh berishiga, gullab-yashnashiga olib kelmoqda.



Sakura butog'i Yaponiya ramzidir. Sakura ba'zan yapon olchasi deb ham ataladi. Bu daraxtning bo'yi 5-8 metr, shox-shabballari kulrang-malla tusdadir. Yaproqlari cho'zinchoq, tuxumsimondir, daraxtning tepa qismidagi barglar yanada cho'zilgan bo'ladi va gilos barglarini eslatadi. Gullari pushti-qizil yoki ochiq pushti rangda 2-5 donadan to'p-to'p bo'lib ochiladi. Sakura gullaganda yetti yoshdan yetmish yoshgacha barcha kishilar oilasi yoki yoru birodarlari bilan to'planib, bog' va parklarda nozik oqpushti gulbarglarni tomosha qilishadi. Bu



yaponlarning eng ko'hna an'alaridan biridir. Gullarni chizishday murakkab ikebana san'atini har kim ham eplayvermagani bilan, gullayotgan daraxtni tomosha qilish har kimning qo'lidan keladi. Yaponlar bu tomoshaga ancha vaqt hozirlik ko'rishadi. Yaxshiroq joyni egallash uchun boqqa bir kun oldin kelish lozim. Yaponlar, odatda, olchaning gullashini ikki marta: ishda hamkasblari hamda uyda oila a'zolari davrasida nishonlashadi. Bayramni hamkasblar davrasida nishonlash hech kimning buzishga haqqi yo'q muqaddas burchdir, oila davrasida nishonlash esa kishiga lazzat bag'ishlaydi. Daraxt tomosha qilgan kishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sakura, shuningdek, Markaziy Osiyo, Boltiqbo'yi, Moldaviya, Kavkaz, Qrim va Zakarpatyeda ham o'sadi.

Sahifani Ijtimoiy yo'nalishdagi Respublika maxsus gimnaziyasi o'quvchisi Behzod IKROMOV tayyorladi.



Yaponlar hayot tarzining eng yuqori darajasiga erishganlar. Yaponiya aholisi 126 mln.ga yaqin kishini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich bo'yicha mamlakat dunyoda Rossiyadan keyingi 8-o'rinni egallaydi. Shuni aytish kerakki, Yaponiya dunyodagi aholi zich joylashgan davlatlardan biridir. O'rta hisobda har bir kvadrat km.ga 337 kishi to'g'ri keladi. Tokio, Osaka, Nagoya singari shaharlarda esa aholi zichligi juda yuqori. Aholi umrining davomiyligi - millatni sog'lomligini va aholi hayotining sifatini belgilovchi muhim bir ko'rsatkichdir. Yaponiyada erkaklar o'rta hisobda 77,1 yil, ayollar esa 83,8 yil yashaydilar. (Ko'rsatkichlar 1997 yilda olingan). Bu dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichdir. Yaponlar uchun oila - asosiy hayotiy boylik. Bu joyda ajralish dunyoning boshqa rivojlangan mamlakatlariga qaraganda ancha kam uchraydi. Zamonaviy Yapon oilalarda odatda ikkita ortiq farzand bo'lmaydi. Butun Yapon



oilalarining 11 foizga yaqini uch avloddan iboratdir. Ayollarning jamiyatdagi ahvoli ham o'zgardi. Hozirgi Yaponiyada gi ishlovchilarning 41 foizini ayollar tashkil qilib, ularning ko'pchiligi turmushga chiqqanlar. (oilali) Ular o'z karyeralarini farzand tarbiyasi va oila tashvishlarga qo'shib olib boradilar.

Yaponiya konstitutsiyasi fuqarolarga din erkinligini kafolatlaydi. Umuman, yaponlar o'zlarini unchalik dindor xalq hisoblamasalar-da, ular asosan ikkita dinga: sintoizm va budda diniga e'tiqod qiladilar.

TOKIODAN ALANGALI SALOM!

Men Toshkent Davlat Sharqshunoslik oliygohining yapon filologiya fakultetida tahsil olardim. Olardim, deyishimga sabab, hozirgi kunda o'qishimni Yaponiyada davom ettiryapman. Yapon tili va madaniyatini o'rganishga bo'lgan qiziqishim bois Yaponiyaning Tokio xorijiy talabalar universitetida o'qiyapman. Dastlab yapon tilini mukammal bilmaganim bois juda qiynalgandim. Hozir esa ancha yaxshi. O'qishlarim a'lo, bo'sh vaqtlarim ham juda sermazmun o'tyapti. Suv sporti bilan muntazam shug'ullanyapman. Boshqa mamlakatlardan kelgan do'stlarim bilan shaharning diqqatga sazovor joylarini tomosha qilamiz. Yaqinda bir guruh yapon bolalarini hayvonot bog'iga aylanishga olib bordim. Shu tariqa lug'at boyligimni oshirib boryapman. Yapon bolalari ham xuddi o'zbek bolalaridek juda mehnatkash, bilimga chanqoq bolalar ekanlar. O'yinqaroqliklari, har narsaga qiziquvchanliklari ham yurtimiz bolalarini eslatib turadi. Ammo oliygohlardagi o'qish jarayonida biroz farq bor ekan. Bizda darslarga, ma'ruzalarga qatnash majburiy qilib qo'yilgan. Yaponiyada esa ixtiyoriy. Lekin imtihonlar paytida talabalarning bilimi



jiddiy sinovdan o'tkazilarkan.

Yanabir jihati - bizda talabalarga stipendiyalar beriladi. Men tahsil olayotgan universitetda esa stipendiya berilmaydi. Shuning uchun ham o'z sarf-harajatlarimiz uchun o'zimiz ishlab pul topamiz. Men darsdan bo'sh vaqtlarimda oilaviy restoranda xizmat qilyapman. Mijozlarim bilan muloqot davomida nutq boyligimni o'stirypman, yapon muomala madaniyatini o'rganib boryapman. Maqtanyapti demanglaru hozir men bilan suhbatlashsangiz, yapon bola bilan gaplashayotgandek bo'lasiz, nutqim yaponiyaliklarnikidan qolishmaydi.

Hammasi yaxshiku-ya, lekin ona yurt sog'inchini tinchlik bermayapti-da. O'zbekistonim ko'chalarida yurgim, odamlari bilan gaplashgim, ota-onam, opam-singillarim, qarindoshlarim davrasida o'tirgim kelyapti. O'z yurtning qadrini o'zga yurtlarda bilasan, deganlari rost ekan. O'z uying, o'lan to'shagingga hech narsa yetmas ekan.

*Javlon RAZZOQOV,
Tokiodagi xorijiy talabalar universiteti talabasi.*

YETTI YIL SARSONLIKDA

Aziz bolajonlar! Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumani haqida ko'p eshitgansizlar, Shahrisabzlik tengdoshlaringizning maqolalarini gazeta sahifalarida ko'p bora o'qigan bo'lsangiz ajabmas. Lekin Chambil qishlog'i oqsoqollari Bolta Xushvaqtoy, Chori Xudoyberdiyev Ko'char Do'sanovlar yetti yil mobaynida maktub ko'tarib jamoa xo'jaligi raisiga, tuman rahbariyatiga, viloyatgacha qatnab kavushlari yirtilibdi. Nega deysizmi?



BIZGA KITOB BERING

Bu yil 10-sinfga chiqsam, ko'p o'rtoqlarim kollejga kirib, 3 ta sinfni 2 ta sinf qilib qo'yishibdi. Endi o'qituvchilar bizga ko'proq e'tiborli bo'lishadi. Shuning uchun ham yaxshi o'qish kerak. Ammo bunga darsliklar darkor. Darsliklarni to'liq qilib olish muammo. Qani endi biror sahovatli inson sinfimiz o'quvchilarini darslik kitobi bilan to'liq ta'minlab bersa! Bu kitoblarni ukalarimiz ham o'qirdi...

Madina XALILOVA,
Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on
shahridagi Zavqiy nomli 6-o'rta
maktabning 10-sinf o'quvchisi.

Chambillik o'quvchilar, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari 4 chaqirim uzoqda - Eski Dahayak qishlog'ida joylashgan 7-maktabga qatnab tolilshdi. Chunki yozda yo'l tuproq, chang, qishda esa loy, botqoqqa aylanadi. Kichik sinfdagi o'quvchilar sovuqda qotib, maktabga yig'lab borilshadi. Bu holga qishloq oqsoqollari albatta befarq qaray olishmadi. Bolalarning ahvolidan kuyunib maktab qurilishiga yer ajratishga muvaffaq bo'ldilar. Lekin u yerda hali qurilish boshlanganicha yo'q. Qachon boshlanishi ham noma'lum. Tuman rahbariyati Chambil qishlog'i shiypolini boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ajratib berishlarini va'da qilishdi. Lekin va'da va'daligicha qoldi.

Maktab qurilishi uchun ajratilgan yerga na maktab qurilmoqda, na qishloq shiyponi


maktab uchun ajratilmoqda.

Sevimli gazetamiz «Tong yulduzi». Umidimiz faqat sendan. Hali suyagi qotmagan farzandlarimizga 1-4-sinf gacha maktab qurib berilishiga yordam berishingni so'rab, Chambil qishlog'ining 22 kishi imzo qo'ygan maktubini yetkazuvchi

Erkin XUSHVAQTOV, dramaturg
O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining a'zosi.

KIM HAQ?

Ikki dehqon dalada ishlab endi tushlikka o'tirishgan ediki, bir yo'lovchi o'tib qoldi. Yo'lovchini ham tushlikka taklif qilishdi. Birinchi dehqon 7 ta, ikkinchisi esa 4 ta kulchani olib dasturxonga qo'yishdi. 11 ta kulchani teng taqsimlab tushlik qilishdi. Yo'lovchi tushlik uchun rahmatlar aytib, qo'yarda-qo'ymay



cho'ntagidan bor puli 1 so'm 10 tiyinni dehqonlarga berib, yo'lida davom etdi. Dehqonlar bu pulni qanday qilib bo'lib olishlarini bilmay qolishdi. Ulardan biri:

-Kel, teng bo'lib ola qolaylik - desa, ikkinchisi:

-Nega endi? Axir 11 ta kulchaga 1 so'm 10 tiyin berildi. Demak, bitta kulcha 10 tiyinga to'g'ri keladi. Mening 7 ta kulcham bor edi, shuning uchun menga 70 tiyin, senga esa 40 tiyin tegishi kerak, - dedi.

Ayting-chi, ularning qaysi biri haq?

NON XAMIRDAN BO'LADI

Afandi non sotar edi:

-Noningiz nuqul xamir-ku, - dedi



xaridorlardan biri.

-Ha non xamirdan bo'lmay, nimadan bo'lardi, - javob berdi Afandi.

XO'TIK

Afandi oydin kechada

eshak minib qishloqqa ketayotgan edi, qaroqchilarga uchradi. Qayoqqa qochishini bilmasdan, eshakdan tushib uning tagiga yashirindi.

Qaroqchilar kelib eshak tagidagi Afandidan so'radilar:

-Kimsan?

-Xo'tikman, - dedi Afandi.

-Bu erkak eshak-ku, - dedi bir qaroqchi.

-Onam to'yga ketgan edi,

- dedi Afandi - Shuning uchun

dadam bilan ketmoqdaman.

DENGIZNING SUVI

Afandidan bir kuni so'radilar:

-Afandi, dengizning suvi nega sho'r?

Afandi dedi:

-Dengizdagi baliqlar sasib qolmasin deb, tuzlab qo'yishgan.

Arab tilidan

Madina SAIDMURODOVA tarjimasi,
Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi
5 - ixtisoslashtirilgan litsey-maktabning
7-sinf o'quvchisi.

SHILLIQQURT

Savollar: 1. Sayr qildirar shoshilmay yurtning o'g'il-qizini, lekin yurgan yo'lida qoldiradi izini. 2. Sutdan og'zi kuygan, ...ni puflab ichadi. 3. Insonning eshitish organi. 4. Yetkazar og'zingizga, oshning quyuq suyug'in. 5. Ming dardga davo bo'lar, polizdan o'rin egallar. 6. Dildan so'zlar terib marjonga, ... aytay senday janonga (P.Mo'min). 7. Yerning dengiz va okeanlar bilan qurshalgan oltita alohida qismlaridan har biri. 8. Shifobaxsh meva. 9. Hind kinosi. 10. Qit'a. 11. Ra'noguldoshlar oilasining vakillaridan biri. 12. Adirlarda o'suvchi gul. 13. Sport turlaridan biri. 14. Joni bor-u qoni yo'q.



TONG yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
MATBUOT VA
AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

Bosh muharrir
Umida
ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama
MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Nashir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
«O'zbekiston»
nashriyoti matbaa
bazasida chop etildi.
Adadi - 11408
Korxona manzili:
700129,
Toshkent,
Navoiy
ko'chasi, 30.
Buyurtma № F -05
Gazetani
Muharrama
PIRMATOVA
sahifaladi.
Naybatchi:
Gulyuz
VALIYEVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilmiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75